XALQ DEPUTATLARI OQQO'RG'ON TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 9 - yanvar VI-63-3-10-133-K/23 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

Oqqo‘rg‘on tumanining 2023-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 27-dekabr qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil byudjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-oktabrdagi 02-958-sonli va Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1020-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Oqqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 80 558 764,0 ming.so‘m va xarajatlari 136 104 937,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Oqqo‘rg‘on tumanini 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga, xarajatlari prognozi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2023-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun viloyat byudjetidan Oqqo‘rg‘on tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori 55 546 173,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2023-yil uchun tumanning zaxira jamg‘armasi hajmi 1 284 009,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2023-yil uchun tumanning byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 818 397,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkazilishi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkazilishi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

tuman va shahar darajasida bo‘lmagan boshqa daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida quyidagi

soliq turlari bo‘yicha taqsimlanishi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 63 foizi;

Foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 63 foizi;

Aylanmadan olinadigan soliqning (Foyda solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxslar, yillik aylanmasi 100 mln so‘mdan ortiq bo‘lgan YaTTlar) 30 foizi;

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (o‘z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik shaxslar) 80 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga o‘tkazib berilishi;

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkazilishi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi PF–6053-son Farmoniga asosan Bo‘stonliq tumanida litsenziya va ruxsatnoma berishdan, suv

resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va ma’muriy huquqbuzarliklar uchun jarimadan respublika va viloyat mahalliy byudjetiga tushadigan mablag‘lar va bojlar to‘liqligicha tuman mahalliy byudjetiga yo‘naltirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yiladi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltiriladi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirishning yangi tartibini ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Babasaidov), Moliya bo‘limi (Z.Janbayev), Davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev) tumandagi mas’ul idora va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Toshkent mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish

hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Oqqo‘rg‘on tumani bo‘limi (S.Saloxiddinov), Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (I.Raxmonqulov), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tuman vakili, Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev), tuman moliya bo‘limi mudiri (Z.Janbayev) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay mahalliy byudjetga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Tuman Irrigvsiya bo‘limi (T.Mirzakarimov), Tuman davlat soliq inspeksiyasi (B.Shomirzayev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv xajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Oqqo‘rg‘on tumani moliya bo‘limi (Z.Janbayev):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

19. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi raisi



Z.Chintashev

Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 9 yanvardagi
VI-63-3-10-133-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI OQQO‘RG‘ON TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**	**Ajratma Me’yori**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	9 436 306	63%
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 187 090	30%
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26 060 857	63%
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 217 000	100%
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	4 125 976	100%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 374 331	100%
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 229 807	100%
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 192 033	80%
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 025 807	100%
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	191 182	100%
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 592 585	100%
9	Davlat boji		
10	Jarimalar		
11	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari		
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	223 397	100%
10	Yig‘imlar		
11	Xususiylashtirish		
12	Boshqalar		
JAMI		**62 856 371**	

	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**17 702 393**	
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	7 161 525	
14	Mobil aloqa xizmati	3 071 878	
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	7 468 990	
JAMI DAROMAD		**80 558 764**	

Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 9 yanvardagi
VI-63-3-10-133-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-YIL UChUN TOSHKENT VILOYATI OQQO‘RG‘ON TUMAN BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARINING REJA KO‘RSATKIChLARI

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**136 104 937**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**96 481 100**
1.1	Maorif	16 155 201
	- maktabgacha ta’lim	7 104 022
	- umumiy ta’lim	9 051 179
1.2	Sog‘liqni saqlash	49 286 039
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 281 302
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 963 261
	- sport	3 318 041
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	25 638 915
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	18 400
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	101 243
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**15 354 253**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	480 288
2.2	Obodonlashtirish	11 362 082
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 735 973
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 110 056
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	665 854
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**14 252 572**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	14 252 572

4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**2 312 959**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1 284 009**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6 420 044**

Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tuman Kengashining
2023 yil 9 yanvardagi
VI-63-3-10-133-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	Oqqo‘rg‘on tumani	63	63	100	100	100	30	100	100

Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 9 yanvardagi
VI-63-3-10-133-K/23-son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
	Oqqo‘rg‘on tumani	**0,90**	**29 700**	**1,00**	**297,0**
1	Guliston MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
2	Yoshlik MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
3	Zarafshon MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
4	Zarbdor MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
5	Qahramon MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
6	Qo'rg'ontepa MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
7	Navro'z MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
8	Usta Normat MFY	1,0	29 700,0	0,9	267,3
9	Birlik MFY	1,0	29 700,0	0,9	267,3
10	Qo'rg'oncha MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
11	Madaniyat MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
12	Navbahor MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
13	Xalqabod MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
14	Hamzaobod MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
15	Xosildor MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
16	Boyguli MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
17	Jag'olboyli MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
18	Qo'shtepa MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
19	S.Raximov MFY	1,0	29 700,0	0,9	267,3

20	Sultonobod MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
21	Tortuvli MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
22	X.Olimjon MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
23	Qushtamg'ali MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
24	Mustaqillik MFY	1,0	29 700,0	0,9	267,3
25	S.Segizboev MFY	1,0	29 700,0	0,9	267,3
26	Suvti MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
27	Tolovul MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
28	Xonobod MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5
29	Eltamg'ali MFY	0,9	26 730,0	0,85	252,5

Xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 9 yanvardagi
VI-63-3-10-133-K/23-son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Oqqo‘rg‘on tumani	0,8	800 000,0